

**TURIZM XIZMATLARI TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-
IJTIMOIY AHAMIYATI**

Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistenti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:	<i>Ushbu maqolada ta'mirlanayotgan yo'l</i>
<i>Received: 19.09.2025</i>	<i>bo'laklarida harakat xavfsizligini me'yoriy talabalar</i>
<i>Revised: 20.09.2025</i>	<i>darajasida ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab</i>
<i>Accepted: 21.09.2025</i>	<i>chiqilgan.</i>

KALIT SO'ZLAR:

*Yo'l belgilari,
transport vositalari,
ta'mirlash mintaqalari,
texnik boshqaruv
vositalari, jixozlash,
yo'l sharoiti.*

Bugun dunyo mamlakatlarining ko'pchiligi turizm iqtisodini rivojlantirish orqali o'z milliy iqtisodiyotini taraqqiy ettirmoqda. Mamlakatimiz turizmni shakllantirishda har qanday xorij davlatlaridan qolishmaydigan imkoniyatlarga egaligi bu borada ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Shularni inobatga olib, O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan hozirga qadar zamon talablariga javob beradigan turizm infratuzilmasini tarkib toptirish va rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda.

Turizm infratuzilmasi turistlarning turistik zaxiralardan bemaolol foydalanishini ta'minlovchi binolar tizimi, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan yo'llar, turizmning xilma - xil korxonalari va ularning faoliyati, shuning bilan birga ushbu faoliyatni ta'minlovchi boshqa tizimlar tushuniladi. Bular qatorida avtomobil yo'llari, temir yo'l, havo yo'llari, dengiz va daryo yo'llari harakatini tartibga soluvchi tizimlar, issiqlik, elektr va telefon aloqalarini sanab o'tish mumkin.

Mehmondo'stlik hamda turizm industriyalari, bugungi kunda dunyodagi eng salmoqli va tez sur'atlarda rivojlanayotgan sanoat sohalaridan biri hisoblanadi. Bu tarmoqlarning alohida o'ziga xos jihati, undagi kasblar sonining nihoyatda ko'pligidir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda.

Butunjahon sayyohlik tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, har yili 1 milliarddan ortiq odam boshqa mamlakatlarga tashrif buyurishadi. 2030-yilga borib, bu raqam 1,8 milliardgacha

ko'payadi, degan prognoz ham berilgan (UNWTO). Sayyohlar soni bilan bir qatorda ish o'rinlari soni ko'paymoqda. 2026-yilga kelib, mehmondo'stlik sanoatiga 370 million nafar mutaxassis jalb etiladi yoki dunyoda har 9 nafar kishidan bir nafari mazkur sohada (WTTC) ishlaydi. World travel & tourism council (WTTC) sayohat va turizmning dunyodagi 185 mamlakat hamda 25 geografik yoki iqtisodiy mintaqalar uchun iqtisodiy va aholining ish bilan bandligiga ta'siri to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlaydi. WTTC ning Oxford Economics bilan hamkorlikda so'nggi yillardagi tadqiqotlari, Sayohat va Turizm sektori 2019-yilda 3,5% o'sishga erishganini, to'qqizinchi yil ketma-ket dunyo iqtisodiyoti o'sishidan 2,5% ni ortda qoldirganligini ko'rsatadi. So'nggi besh yil ichida sektor tomonidan har to'rtinchi yangi ish o'rinlari yaratildi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko'plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha barcha choralarni qo'llamoqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati borasida quyidagi fikrlarni bildirdilar: "Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi.

Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim.

Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim". Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoni va "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ4095-sonli qarorlari bilan O'zbekistonda 2019–2025-yillarda turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Unga ko'ra 2025-yilga qadar soha rivojlanishining asosiy yo'nalishlari belgilandi va muhimi soha uchun maqsadli ko'rsatkichlar belgilandi. Shuningdek, 2019-yil 13-avgust kuni sohani yanada jadal rivojlantirish, son ko'rsatkichlaridan sifat ko'rsatkichlariga o'tishini belgilovchi O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5781-sonli Farmoni qabul qilindi.

Yetarli infratuzilma turlarining asosiy omillari quyidagicha guruhlanadi:

- hududiy qo‘l mehnati va kerakli vosita;
- tunash komplekslari (hotel, motel, kemping);
- suvning, asosan ichiladigan suvning ta‘minlanishi;
- kanalizatsiya, telekommunikatsiya;
- yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarining ta‘minlanishi;
- sog‘liqni saqlash tizimining bo‘lishi;
- xavfsizlik jihatidan kerakli manbalarni ta‘minlaydigan transportlar;
- portlar, ishonchli temir yo‘l; tarixiy yodgorliklar va an‘analarni himoya qiladigan dasturlarning ishlab chiqilishi;
- atrof-muhitni himoya qilish;
- madaniy ko‘rsatuvlar dasturi va o‘qish joylari, kutubxona, muzey, teatr, xususiy va davlatga tegishli madaniy markazlarni qurish;
- piyodalarni shovqinga, changga, tumanga qarshi tadbirlarini ishlab chiqish, yashil joylar va chiroyli bog‘larning barpo qilinishi;
- piyodalarga va velosipedchilarga mo‘ljallangan yo‘llarni, imoratlarni, o‘rindiqlarni va dam olish joylarini, axlat tashlash joylarini tartibga keltirish;
- turizmni kasb qilgan odamlarni o‘qitish va o‘z-o‘zlarini rivojlantiruvchi imkoniyatlarning yaratilishi;
- tabiiy ofatlardan saqlanish tadbirlari, yong‘inni o‘chirish xizmatlari.

Xorijiy tashrif buyuruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistik mahsulotlar turini diversifikatsiya qilish va eng muhimi sohaning huquqiy asosini takomillashtirish orqali uning investitsion jozibadorligini oshirish yo‘lida quyidagi yo‘nalishlarda 60 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish orqali aniq natijalarga erishildi:

- Viza talablarini soddalashtirish;
- Mamlakatlar orasida viza rejimini soddalashtirish fuqarolarning mobilligini ta‘minlash bilan bir qatorda rasmiylashtirish xarajatlarni kamaytiradi va chet ellik sayyohlar oqimini ko‘paytiradi.
- 2018 yilda 9 ta davlat fuqarolari uchun O‘zbekistonda vizasiz rejim joriy qilingan bo‘lsa, 2019 yilda 47 ta, 2020 yilda 20 ta va 2021 yilda yana 5 ta mamlakat fuqarolari uchun viza talablari turli muddat doirasida bekor qilindi. 2021 yilning 15 aprel holatiga ko‘ra, fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasida vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar soni 90 tani tashkil qiladi.

Bundan tashqari 80 ga yaqin mamlakat fuqarolari soddalashtirilgan tartibga ko‘ra elektron viza rasmiylashtirish imkoniyati ega bo‘ldi. Xorijiy davlat fuqarolarining alohida turlari uchun «Vatandosh», «Talaba», «Akademik», «Tibbiyot» va «Ziyorat» kabi yangi 5 xil viza turlari joriy qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va Sport vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra viza rejimini soddalashtirish o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatdi.

2019 yilda chet ellik sayyohlar sonining o'sishi o'rtacha 26 foizni tashkil qilgan bo'lsa, vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar o'rtasida o'sish ko'rsatkichi 58 foizga yetgan.

Sayyohlar sonining keskin o'sishi natijasida yuzaga kelgan talabni qondirish maqsadida davlat tomonidan joylashtirish maskanlarini ko'paytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi:


Birinchidan, hamyonbop joylashtirish maskanlari turiga mansub xostellar faoliyatini tartibga soluvchi 22 turdagi ortiqcha talablar bekor qilindi. Shu jumladan, xostellar tomonidan ko'rsatiladigan mehmonxona xizmatlarini majburiy sertifikatsiyalash tartibi bekor qilinib, mehmon uylari va xostellar yagona reyestridan ro'yhatdan o'tgan holda faoliyat olib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Ikkinchidan, mamlakatda kichik turdagi mehmonxonalar sonini ko'paytirish maqsadida Turkiya va Janubiy Koreya tajribasiga asoslangan 50 nomergacha bo'lgan kichik mehmonxonalarning 8 turdagi namunaviy loyihalari tadbirkorlarga bepul taqdim etildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, tarqatilgan loyihalarning umumiy qiymati 60 mlrd. so'mdan oshiqni tashkil etadi.

Uchinchidan, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida, davlat xususiy sherikchilik shartlari asosida mehmonxonalar qurishga qator imtiyozlar joriy qilindi. Unga ko'ra, qurilgan 3 yulduzli mehmonxonalarning har bir xonasi uchun davlat budjeti mablag'lari hisobiga 30 mln., 4 yulduzli mehmonxonalar uchun 40 mln. so'm kompensatsiya ajratish belgilandi. Shu bilan birga, jahonga mashhur mehmonxona brenlarini jalb qilgan mehmonxonalarning royalti xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Unga ko'ra, 3 yulduzli mehmonxonalarning har bir xonasi uchun 200 AQSh doll., 4 yulduzli mehmonxonalar uchun 400 doll ajratiladi. Natijada, joylashtirish vositalarining soni keskin ko'paydi. Xususan, 2016-2020 yillar oralig'ida ularning soni 750 tadan 1308 taga, mavjud o'rinlar soni esa 34 mingdan 62 mingga oshdi. Shuningdek, 2018-2020 yillar davomida mehmon uylarining soni 13 barobarga oshib, 1386 taga yetdi.

Turizm xizmatlari turlarining ko'payishi ularning ortidan daromadni ko'payishi imkonini beradi. Xususan,

MICE-turizm. Jahon Sayyohlik Tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, ish tufayli safar qilayotgan sayyoh safari davomida dam olish maqsadidagi sayyohga qaraganda 3-4 barobar ko'proq sarf xarajat qiladi. Bundan tashqari, dam olish turizmi mavsumiy xarakterga ega bo'lsa, ish turizmi yil davomida daromad keltirish imkoniyati mavjud. So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm xizmatlari tarkibini diversifikatsiya qilish va turizmning yangi turlarini rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar olib borildi. Xususan, MICE turizm ya'ni, O'zbekistonda turli uchrashuv, konferensiya va ko'rgazmalarni tashkil etish orqali sayyohlar oqimini ko'paytirishga katta e'tibor qaratilmoqda.



1-rasm. Mehmondo'stlik industriyasi

Kino turizm. Kino turizm mamlakatning imidjini shakllantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, potensial sayyohlar orasida mamlakat haqida ma'lumot beruvchi passiv reklama vazifasini ham o'taydi. Misol uchun, Sheryurak (Braveheart) filmining namoyishidan bir yil o'tib, kino suratga olingan Shotlandiyaning Wallace monumentiga tashrif buyuruvchilar soni 300 foizga oshgan. Shunga o'xshash boshqa bir filmning namoyishidan so'ng film tasvirga olingan mehmonxona xonalari keyingi 3 yil uchun band qilingan. Turkiyaning "Xinoliqor" seriali esa o'sha tarixiy qishloq aholisining dafomadini 250-280 %ga oshirgan.

Ziyorat turizmi. 2019 yilda chop etilgan Global musulmon turizmi indeksi hisobotiga ko'ra, 2018 yilda ziyorat maqsadlarida safar qilgan musulmonlarning soni 140 million kishini tashkil qilgan va 2026 yilga kelib bu raqam 230 millionga yetishi kutilmoqda. O'tkan davr mobaynida O'zbekistonda turizmning Ziyorat turini rivojlantirish va uning turistik xizmatlar eksportidagi ulushini oshirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Buxoroda 34 mamlakatdan tashrif buyurgan 120 xorijiy mehmonlar ishtirokida birinchi Ziyorat turizmi Forumi o'tkazildi. Ziyorat turizmi bilan tashrif buyurgan sayyohlarga alohida qulaylik yaratish maqsadida mehmonxonalarda yangi talablar joriy etildi, respublika hududidagi masjidning xaritasi ishlab chiqilib, mobil dasturga joylashtirildi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida, "CrescentRating" tashkiloti tomonidan tuziladigan Global musulmon turizmi indeksida O'zbekiston 10 pog'onaga ko'tarilib 22-o'rinni egalladi.

Tibbiy turizm. Texas universiteti professori Hamid Beladi tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, tibbiy turizmdan olingan daromadlarning 1%ga o'sishi real YaiMning yillik o'sish sur'atlarini 0,0019%ga oshiradi. Tailand va Malayziya misollarida Naranong, Klijs kabi ko'plab boshqa tadqiqotchilar tibbiy turizmning qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Hindiston tibbiyot sohasini rivojlanishi bo'yicha jaxon bo'yicha yuqori pag'onalarini egallab keladi va yiliga MDH mamlakatlaridan 400 mingdan ortiq turistlar davolanishga va diagnostika o'tqazishga mamlakatga tashrif buyiradi. 2002 yilning oxirlariga kelib, Hindiston «Incredible India» dasturini ishlab chiqdi va turizmning barcha sohalarini rivojlantirilishi ko'zda tutilgan edi.

=====

Shu barovarida, quyidagi dastur orqali global sog'liqni saqlash maqsadlari ko'zda tutilib, asosiy urg'u infratuzilmaga e'tibor qaratildi, ya'ni, aeroportlarning kengaytirilishi, yo'l-transporti harakatlarining rivojlantirilishi, tibbiyot turistik vizasini tashkil qilinishi va shu viza bilan kelgan turistlarga qulay sharoitlar yaratilishi va boshqa hizmatlardir. Hindiston hukumati shu qatorida 45 ta hususiy kasalxonalarni "Malaka oshirish markazi" sifatida birlashtirdi. Davlat miqyosida ba'zi bir tibbiyot muassasalari faqatgina turistlarni qabul qiladi va ko'rgazmalarga ushbu muassasalar faol qatnashadilar. Jahon darajasida professional kadrlarning borligi va ingliz tilini bilish darajasi yuqoriligi ularning tibbiyot turizmidagi ijobiy taraflardan biri hisoblanadi. Hindistonda tibbiyot hizmatlarini boshqa rivojlangan mamlakatlardan ko'ra deyarli 40–70% arzonlashtirilgan narxda olish mumkin, shuning uchun MDH turistlarning tashrif buyiruvchilar soni bo'yicha TOP-5 ga kiradi.

Shuningdek, O'zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirish va tibbiyot maskanlariga ko'proq sayyohlarni jalb qilish bo'yicha turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatning eng yirik davlat va xususiy tibbiyot muassasalari bilan hamkorlikda konferensiyalar, o'quv seminarlari o'tkazilmoqda. Bunda, sayyohlarga tibbiy xizmat ko'rsatishda xususiy tibbiy klinikalarning o'rni katta. Ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilda O'zbekistonga tibbiy maqsadlarda tashrif buyurgan chet ellik fuqarolar soni 50 mingdan oshdi. Aslida, bu raqam bir necha barobar ko'proq bo'lishi mumkin, chunki xususiy tibbiyot klinikalariga tashrif buyuradigan sayyohlar sonini aniqlash hali hanuz mukammal vazifa sifatida qolmoqda.

Agroturizm. O'zbekiston milliy iqtisodiyotining nisbatan yangi sohasi hisoblanishi tufayli jamoatchilik vakillarida agroturizm spetsifikasiga oid qator savollar yuzaga kelmoqda. Agroturizmning Vatani sifatida rivojlangan qishloq xo'jaligi va noyob tog' manzaralari bilan mashhur Avstriya ta'riflansa-da, faoliyatining boshlanish davri Fransiyada Agroturistlar Birinchi Uyushmasining tashkil etilishiga borib taqaladi. Agroturizm faoliyatini turizm bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jalik korxonalari (fermer xo'jaliklari) yuritadi. Ushbu tushuncha nafaqat sayyohlar, balki ta'til tashkilotchilari tashkillashtirgan barcha tadbirlarni aks ettirgani uchun ham uni turistlar bir ma'noda, qishloq xo'jaligi korxonalari subektlari boshqa ma'noda tushunishadi. Turistlar nuqtayi nazaridan, agroturizm deb qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini o'rgatadigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning butun faoliyati yoki ma'lum muddat fermalar muhitida yashash, ishlab chiqarishda ishtirok etish tushuniladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga chuqur ixtisoslashgan va qishloq xo'jalik korxonalari bilan uzviy aloqada bo'lgan hududga nisbatan qishloq turizmi termini ishlatilishi nazarda tutiladi. Agroturizm esa keng ma'noda shunga qo'shimcha ravishda milliy an'analarga xos tarzda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning xizmatlarini ham qamrab oladi. Olimlarning tadqiqotlarini o'rganish doirasida shu aniq bo'ldiki, agroturizm – qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish (siljitish) va qo'shimcha daromad olish maqsadida sayyohlargaham dam olishi, ham ta'lim olishi uchun xizmat ko'rsatadigan fermerlar faoliyatiga qaratilgan turizm (Universitet Pudrdyu, AQSh).

=====

Agroturizmga sharqona nuqtayi nazar va O'zbekiston an'analaridan kelib chiqib ta'riflasak, agroturizm – shunday turizm turiki, sayyohlarning qishloqlarda joylashgan fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va uy xo'jaliklari (maxsus tomorqaga ega xonadonlar) tashrifini aks ettiradi. Boshqa yondashuvlardan asosiy farqi, uy xo'jaliklari fermer xo'jaligi sifatida ro'yxatdan o'tmagan, yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatmayotgan bo'lsa-da lekin oilaviy daromad olib keluvchi tadbirkorlar sifatida agroturizm bilan mustaqil shug'ullana oladigan, ekskursiya xizmatlari tashkillashtira oladigan xo'jaliklardir. Shuningdek, ularning asosiy faoliyati qishloq xo'jaligida mavjud ishlarni qilish bo'lib, agroturizm xizmatlarini bajarish orqali esa qo'shimcha daromad ko'radilar.

Yalpi turistik mahsulot – bu turizm sohasida ishlab chiqarilgan (iste'mol qilinadigan) tovarlar va xizmatlarning qiymat hajmidir. Qiymat ifodasida turistik mahsulot ikki uslubda baholanadi:

korxonalar, hududlar daromadlariga aylanadigan turistlar xarajatlari summasi sifatida; turistik mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari summasi sifatida. Daromad sifatida yalpi turistik mahsulot o'z ichiga oladi: turistik tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishdan tushumning bir qismi sifatidagi jami ish haqi. Bunga shuningdek taqdim etilgan zayomlar (kreditlar) kiradi; xonalar, apporamentlar va hokazolarni ijaraga berish orqali tushum; pullarni qarzga berish (masalan bankdagi depozit raqamida pullarni saqlash uchun foizlar) orqali turistik korxona oladigan foizlar.

Qiymat ifodasidagi turizmdan daromadlar turistik mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlariga teng:

$$TD = TM - KA + DS;$$

Bu yerda: TD – turistik daromad;

TM – turistik mahsulot;

BX – bilvosita xarajatlar;

DS – davlat subsidiyalari;

Yalpi turistik mahsulotni aniqlashda quyidagi holatlarni inobatga olish lozim:

1. Qarzlarni tugatish turistik mablag'larnig kamaytirilishi sifatida ko'rib chiqiladi. Qarzlarning qoplanishi turistik mablag'larni shakllantirish bo'yicha xarajatlarning bir qismi sifatida ko'riladi. Ushbu xarajatlar qo'shilgan qiymatning bir qismi hisoblanmasada, ammo ular daromadlarga kiritilmaydi, chunki pulning turistik biznesda foydalanish uchun qaytarilmaydi. Natijada ularni turli qarzlarni qoplash uchun foiz sifatida inobatga olish lozim.

2. Bilvosita soliqlar turistik tovarlar va xizmatlar tarkibiga kiradi. Shu sababli turistik mahsulotni ishlab chiqarishdagi xarajatlarni qo'shishda ularni daromadga teng bo'lishini ta'minlash maqsadida daromadning bir qismiga qarzlarni qoplash uchun bilvosita soliqlarni qo'shish lozim.

Turistik mahsulot – bu turistlarning u yoki bu ehtiyojlarini qondiradigan va ular tomonidan haq to'lanadigan har qanday xizmatdir. Bunday xizmatlarga mehmonxona,

transport, ekskursion, tarjimonlik maishiy, kommunal, vositachilik va boshqa xizmatlar kiradi. Shunday qilib, turistik mahsulot tor va keng maʼnoda koʻriladi. Tor maʼnoda turistik mahsulot – bu turistik industriya aniq sektorining (masalan mehmonxona mahsuloti, turoperator, transport korxonasi turmahsuloti va hokazo) mahsulotidir. Keng maʼnoda turistik mahsulot bu turistik sayr (tur) umumiy tashkil etuvchi tovarlar va xizmatlar kompleksi yoki unga bevosita aloqador.¹

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/sistemnyy-sintez-kategorii-agroturizma.pdf>
2. Kaluina M. Travel and Tourism in Eastern Europe // Euromonitor International, 2013. — 24 p.
3. А.Б. Здорова. Агротуризм: перспективи розвитку в Україні // Міжнар. наук. - практ. конф. “Наука, інновації та розвиток регіонів”.
4. Тажибаев, М. Б., Душанова, Ю. Ф., & Умиров, Ж. Т. (2020). The role of national tourism resources in the development of domestic tourism. Economics, (4), 41-43.
5. Файзиева, С. К., & Умиров, Ж. Т. (2021). Объекты культурного наследия для развития сельского туризма в Узбекистане. Вопросы науки и образования, (1 (126)), 7-14.
6. Temirkulovich, U. J. (2021). Importance of entrepreneurship development in tourism industry (Bukhara region). Academia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 700-704
7. Самиева Г. Т. РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ СЛУЖИТ ПОВЫШЕНИЮ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ //Экономика и социум. – 2024. – №. 5-1 (120). – С. 1597-1600.
8. Самиева Г. Т. ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ПОВЫШЕНИИ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-1 (117). – С. 1341-1345
9. Измерение эффективности социальных предприятий - концептуальный подход учет Паси SyrjäЮ, Хелена Шегрена, Энн Илмаринен. Технологический университет г. Лаппеенранта .Fi-53851 Lappeenranta Финляндия перевод с финдл. <http://archiv.ub.uni-heidelberg.de/volltextserver/18758/>

¹ Измерение эффективности социальных предприятий - концептуальный подход учет Паси SyrjäЮ, Хелена Шегрена, Энн Илмаринен. Технологический университет г. Лаппеенранта .Fi-53851 Lappeenranta Финляндия перевод с финдл. <http://archiv.ub.uni-heidelberg.de/volltextserver/18758/>